



UZGASTRADE AKSIYADORLIK JAMIYATI BUYRUQ

"5" mart 2026 yil. 12-um - son

Toshkent sh.

"UzGazTrade" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti va komplayens-menejmenti tizimlarini qo'llash to'g'risida

ISO 37001 ga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini, ISO 37301 ga muvofiq komplayens-menejmenti tizimini joriy etish va faoliyat ko'rsatishi, javobgarlikning shaffof chegaralarini belgilash va menejment tizimini qo'llash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. "UzGazTrade" AJda quyidagi menejment tizimini qo'llash sohasi belgilansin: "Tabiiy gazni xarid qilish, tashish va sotishni boshqarish."

2. Belgilab qo'yilsinki, "UzGazTrade" AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va Komplayens-menejment tizimi quyidagilarga tatbiq etiladi:

"UzGazTrade" AJning barcha xodimlari;

Jamiyat boshqaruv organlari a'zolari;

"UzGazTrade" AJ nomidan amalga oshiriladigan jarayonlar.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va Komplayens-menejment tizimi standartlari "UzGazTrade" AJning barcha shartnomalarida qo'llanilishi belgilansin.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va Komplayens-menejment tizimi standartlari qo'llanishda istisnolarga yo'l qo'yilmasligi belgilansin.

5. Komplayens-nazorati bo'limi quyidagilar uchun mas'ul etib belgilansin:

Tizim hujjatlarini ishlab chiqish va yangilash;

ISO 37001 va ISO 37301 talablariga rioya etilishini monitoring qilish;

Komplayens va korrupsiya xavflarini baholashni muvofiqlashtirish;

Rahbariyat uchun hisobotlar tayyorlash.

6. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va Komplayens-menejment tizimi talablarini o'z bo'linmalarida joriy qilishi va ularga rioya etilishini ta'minlash, hamda mazkur buyruq talablarining bajarilishi uchun shaxsan javobgar ekanliklari belgilansin

7. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (A. Niyazmetov) mazkur buyruqni Jamiyatning tegishli tarkibiy bo'linmalari e'tiboriga yetkazilishini ta'minlasin

8. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



A.T. Agzamov